


PRESS-TUR O‘TKAZILDI

Image not found or type unknown



Termiz shahrida 2023 yil yanvar–iyul oylarida aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish maqsadli ko‘rsatkichlari ijrosi bo‘yicha bir muncha ishlar amalga oshirildi jumladan:

Termiz shahar hokimligini mas‘ul majmualarining tezkor ma‘lumotlariga asosan Termiz shahrida yanvar–iyul oylarida 7 692 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi belgilangan bo‘lib amalda 9 819 ta ish o‘rinlari yaratildi, reja 127,7 foizga bajarildi. Shundan doimiy ish o‘rinlari tashkil etishda 1 561 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi

belgilangan bo'lib amalda 3 417 ta ish o'rinlari yaratilib, reja 218,8 foizga, mavsumiy va vaqtinchalik ish o'rinlari tashkil etishda 493 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi belgilangan bo'lib amalda 417 ta ish o'rinlari yaratilib, reja 84,5 foizga bajarilgan bo'lsa, 1 792 ta norasmiy ish o'rinlarini legallashtirish belgilangan bo'lib amalda 1 114 ta ish o'rinlarilegallashtirilib, reja 62,1 foizga bajarildi.

Yaratilgan yangi ish o'rinlarining sohalar bo'yicha tahlili quyidagicha:

-investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirishda

yanvar-iyul oylarida 97 ta doimiy yangi ish o'rinlari yaratilishi belgilangan bo'lib, amalda 279 ta (rejaga nisbatan 347 foiz),

-xizmat ko'rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirishda

yanvar-iyul oylarida 3478 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi belgilangan bo'lib, amalda 4306 ta (rejaga nisbatan 110.7 foiz)ish o'rinlari yaratildi.

-qurilish va kommunal xo'jaligi sohasida yanvar-iyul oylarida

271 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi belgilangan bo'lib, amalda

261 ta (rejaga nisbatan 96.3 foiz) ish o'rinlari yaratildi.

- oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida hokim yordamchilari tavsiyanomalari asosida 1 207 ta loyihaga 28,8 mlrd. so'mlik kreditlar ajratildi;

- aholini tadbirkorlikka jalb qilish, ularga mehnat qurollari va asbob uskunalari olib berish bo'yicha 73 ta fuqaroga 78 mln so'mlik subsidiyalar ajratildi;

- kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qishga 363 nafar fuqarolar yo'naltirilib, "Ishga marhamat" monomarkazlari va boshqa nodavlat ta'lim muassasalarida o'qitildi;

Termiz shahrida utgan 7 oyi davomida - 415 ta yuridik va 410 ta yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlari davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

- Hokim yordamchilari tomonidan umumiy qiymati 40,7 mlrd.so'mlik 137 tadan ortiq kichik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish yo'nalishidagi mikroloyihalarning manzilli ro'yxati shakllantirildi.

Ushbu loyihalar bo'yicha hokim yordamchilari tomonidan loyiha tashabbuskorlariga yil davomida amaliy yordamlar ko'rsatish natijada

443 ga yaqin yangi ish o'rinlarini yaratilishi ko'zda tutilgan.

O'tgan 7 oy davomida mikroloyihalardan 26 tasi ishga tushirilib,

96 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 31 martdagi "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 145-sonli qarori 1-ilovasiga asosan Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining 03.03-2023-yildagi VI-58-20-8-121-k-23-qaroriga binoan "Ayollar daftari"ga xotin-qizlar 6 ta toifa bo'yicha kiritildi.

Joriy yilning 1 fevraldan 15 fevralga qadar "Ayollar daftari"ning 4-bosqichiga kiritiladigan xotin-qizlar ro'yxati shakllantirilib, 4980 nafar xotin-qizlar "Ayollar daftari"ga kiritilishi yuzasidan "individual dastur"lari ishlab chiqildi.

"Ayollar daftari"ga kiritilayotgan xotin-qizlarga yo'l xaritasiga asosan quyidagi amaliy

yordamlar ko'rsatilishi belgilab olingan.

Jumladan,

1. Ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar toifasiga kiritilgan 2009 nafar xotin-qizlardan 83% ya'ni 1668 nafarining bandligi ta'minlandi. Shundan, doimiy ishga 199 nafar, jamoat ishiga 48 nafar, kasb-hunarga o'qitilganlar 158 nafar, subsidiya ajratilgan

58 nafar, o'zini-o'zi band qilganlar 1205 nafarni tashkil etadi.

Misol uchun, "Baynalminal" maxallasidan Bo'ronova Xurshida Xurramovna, Ruzikulova Ugloy Raxmonkulona, Chorjeva Muneraxon Olimjonovnalarga, Subsidiya asosida tikuv mashinkasi berilib o'zini o'zi band qildi, Nasriddinova Mavluda Normuratovna, Salixova Maloxat Magametovnalari jamoat ishiga joylashtirildi. Xo'jaqulova Matluba Xolmurodovna Termiz shahridagi 6 umumiy o'rta ta'lim maktabiga ishga joylashtirildi.

2. Tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ehtiyojmand xotin-qizlar toifasiga kiritilgan 103 nafar xotin-qizlardan 77 nafariga 1 mlrd 19 mln so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratildi.

3. Boquvchisi bo'lmagan ehtiyojmand xotin-qizlar toifasiga kiritilgan 1190 nafar xotin-qizlarning barchasi uchun BHMning 4 baravari miqdorida (1 200 000 so'm) jami bo'lib 1 mlrd 428 mln so'm miqdorida moddiy yordam berildi.

4. Ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan xotin-qizlar toifasiga kiritilgan 1123 nafar xotin-qizlarning barchasi uchun BHMning 4 baravari miqdorida (1 200 000 so'm) jami bo'lib 1 mlrd 347 mln 600 ming so'm miqdorida moddiy yordam berildi.

5. Uy-joyga muhtoj bo'lgan ehtiyojmand xotin-qizlar toifasiga kiritilgan 67 nafar xotin-qizlarning 30 nafari uchun 90 mln so'm miqdorida ijara kompensatsiya uchun mablag' ajratiladi, qolgan 37 nafar xotin-qizlarni 2023-yil davomida subsidiya yoki ijtimoiy uy-joy bilan ta'minlash rejalashtirildi.

6. Qaramog'ida nogironligi bo'lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin-qizlar toifasiga kiritilgan 488 nafar xotin-qizlarning barchasi uchun BHMning 4 baravari miqdorida (1 200 000 so'm) jami bo'lib 585 mln 600 ming so'm miqdorida moddiy yordam berildi.

7. Uy-joyi ta'mirga muxtoj ehtiyojmand 20 nafar xotin-qizlarning barchasi uchun BHMning 30 baravari miqdorida (9 900 000 so'm) jami bo'lib 198 mln so'm miqdorida mablag' ajratilib, ta'mirlash ishlari 3-chorak yakuniga qadar yakunlanadi.

8. "Ayollar daftari"ga kiritilgan 2350 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarga to'ldirilgan "individual dastur"lariga asosan tibbiy, huquqiy va psixologik yordamlar ko'rsatilishi belgilangan bo'lib.

Termiz shahar adliya bo'limi tomonidan 215 nafar xotin-qizlarga "Guliston" mahallasi 1-sektor binosida xuquqiy yordamlar ko'rsatildi.

Halq ta'limi psixoloklari tomonidan 280 nafar xotin-qizlar bilan mahalalarda psixologik maslaxat, treninglar o'tqazib kelinmoqda.

Tibbiyot birlashmasi tomonidan "Ayollar daftari"da turuvchi

350 nafar xotin qizlar tibbiy ko'rikdan o'tqazildi.

Surxondaryo viloyati xotin-qizlar tadbirkorlik markazi tomonidan 225 nafar xotin-qizlar kasb-xunarga o'qitildi.

Avgust Centyabr oylarida "Ayollar daftari"ga 1-toifasiga kiritilgan 110 nafar xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, 20 nafar tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan xotin-qizlarga imtiyozli kredit mablag'lari ajratish, 25 nafar ayollarimizning ijara kompensatsiya to'lovlarini to'lab berish, 50 nafarini ichki turizm bo'yicha sayoxat tashkil etish hamda mahallalar kesimida xotin-qizlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlarini o'tkazishni rejalashtirib oldik.

Yoshlar banndligi

Termiz shahrida yoshlar bandligini ta'minlash hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik muammolarini hal yetish maqsadida sektorlarda olib borilgan ishlar natijasida fevral oyi yakuniga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 yanvar PQ-92-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 iyun kunidagi 312-sonli qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan "Yoshlar daftari"ga kiritilgan hamda "Temir daftar" ga kiritilgan oilalar farzandlaridan iborat jami 299 nafar mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning to'lov kontrakt summasining 50% foizigacha, BHMning 50 baravaridan oshmagan miqdorda jami 643 mln 100 ming so'mlik to'lov-kontrakt summasi to'lab berildi.

Jumladan,

1-sektor hududidagi 82 nafar yoshlarning to'lov-kontrakt summasining 50 % miqdorigacha o'quv yurti hisob raqamiga jami 186 mln 700 ming so'mlik to'lov-kontrakt summasi;

2-sektor hududidagi 79 nafar yoshlarning to'lov-kontrakt summasining 50 % miqdorigacha o'quv yurti hisob raqamiga jami 171 mln 100 ming so'mlik to'lov-kontrakt summasi;

3-sektor hududidagi 61 nafar yoshlarning to'lov-kontrakt summasining 50 % miqdorigacha o'quv yurti hisob raqamiga jami 126 mln 500 ming so'mlik to'lov-kontrakt summasi;

4-sektor hududidagi 78 nafar yoshlarning to'lov-kontrakt summasining 50 % miqdorigacha o'quv yurti hisob raqamiga jami 160 mln 400 ming so'mlik to'lov-kontrakt summasi o'tkazib berildi.

"Yoshlar daftari"da ro'yhatda turuvchi yoshlarga moddiy yordamlar ko'rsatilganli va "Yoshlar jamg'armasi"dan 2023 yil 15 avgust kuniga qadar qilingan harajatlar quyidagicha;

62 nafariga 46,5 mln. so'm bir martalik moddiy yordam;

15 nafariga asbob-uskunalarga 69,6 mln. so'm subsidiya;

7 nafariga haydovchilik kasb-hunarga o'qitish uchun 8,4 mln. so'm;

145 nafariga 348,1 mln. so'm kontrakt to'lovlari;

20 nafariga harbiy safarbarlik chaqiruvi badali uchun 112,8 mln. so'm;

85 nafariga davolanish harajatlari uchun 414,5 mln. so'm mablag'lari to'lab berildi.

76 nafariga 93,2 mln. so'm boshqa yo'nalishlar;

Jumladan,

Termiz shahar bo'yicha "Yoshlar daftari"ga 1285 nafar yoshlar (daftar.mehnat.uz)

yagona yelektron platformasiga kiritildi shundan 697 nafar yoshlarning bandligi

ta'minlangan va daftardan chiqarilgan bo'lib 588 nafar yoshlar bugungi kunda

(daftar.mehnat.uz) yagona yelektron platformasida saqlanib qolmoqda

1-sektor hududida "Yoshlar daftari"ga 378 nafar yoshlar (daftar.mehnat.uz) yagona

yelektron platformasiga kiritildi shundan 198 nafar yoshlarning bandligi ta'minlangan

va daftardan chiqarilgan bo'lib 180 nafar yoshlar bugungi kunda (daftar.mehnat.uz)

yagona yelektron platformasida saqlanib qolmoqda.

2-sektor hududida "Yoshlar daftari"ga 291 nafar yoshlar (daftar.mehnat.uz) yagona

yelektron platformasiga kiritildi shundan 184 nafar yoshlarning bandligi ta'minlangan

va daftardan chiqarilgan bo'lib 107 nafar yoshlar bugungi kunda (daftar.mehnat.uz)

yagona yelektron platformasida saqlanib qolmoqda.

3-sektor hududida "Yoshlar daftari"ga 318 nafar yoshlar (daftar.mehnat.uz) yagona

yelektron platformasiga kiritildi shundan 155 nafar yoshlarning bandligi ta'minlangan

va daftardan chiqarilgan bo'lib 163 nafar yoshlar bugungi kunda (daftar.mehnat.uz)

yagona yelektron platformasida saqlanib qolmoqda.

4-sektor hududida "Yoshlar daftari"ga 299 nafar yoshlar (daftar.mehnat.uz) yagona

yelektron platformasiga kiritildi shundan 161 nafar yoshlarning bandligi ta'minlangan

va daftardan chiqarilgan bo'lib 138 nafar yoshlar bugungi kunda (daftar.mehnat.uz)

yagona yelektron platformasida saqlanib qolmoqda.

Bugungi kunga qadar "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash

jamg'armasi mablag'laridan Vasiylik Kengashining qarorlariga asosan jami 2 mlrd 300

mln so'm mablag' sarflangan.

Shuningdek, beshta muhim tashabbus ijrosini ta'minlash, aholi va yoshlarni ommaviy

sportga jalb yetish maqsadida mahallalardagi yoshlar o'rtasida sportning mini-fudbol

turi bo'yicha sport musobaqalari hamda qizlarni sportga jalb yetish, ular o'rtasida

sog'lom turmush tarzini keng targ'ib yetish maqsadida "Mahallamiz sportchi qizlari"

shiori ostida sportning stol tennis, shaxmat va shashka turlari bo'yicha sport

musobaqalari o'tkazish va g'oliblarni taqdirlash uchun "Besh muhim tashabbus"

tadbirlarida faol ishtirok yetgan yoshlarni rag'batlantirish maqsadida "Yoshlar daftari"

jamg'armasi mablag'lari hisobidan 450 mln 120 ming so'm mablag'lar ajratilgan va

tadbirlar uchun jami 450 mln 120 ming so'm mablag' sarflangan.

II. 2023 yilning II-yarim yiligidan Termiz shahrida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Aholi bandligi ta'minlash borasida 12 ming nafar ishsiz aholini doimiy va mavsumiy

ish o'rinlariga joylashtirish, 5,2 ming nafar fuqarolarni o'zini-o'zi band qilgan shaxs

sifatida ro'yxatga olish, 312 nafarini hunarmadchilikka, 650 nafarini yakka tartibdagi

tadbirkorlikka (yollanma bilan birga) va 1214 nafarini jamoat ishlarga jalb qilish choralari ko'riladi.

2. Aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatish maqsadida 950 nafar fuqarolar (shundan kasb-xunarga 615 nafar va tadbirkorlikka 315 nafar fuqarolar) o'qitish uchun yo'naltiriladi.

Shuningdek, nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan 245 nafar yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitilib, o'qitish bo'yicha NTTga sarflangan xarajatlarning 70 foizi davlat tomonidan kompensatsiya qilib beriladi.

3. Aholini tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish maqsadida oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 2,3 mingga yaqin loyihalarga

56 mlrd.so'mlik imtiyozli kreditlar hamda 415 ming ishsiz fuqarolarga

4,1 mlrd.so'mlik 20 ta turdagi subsidiyalar ajratiladi.

4. Amalga oshirilgan ishlar natijasida 2023 yilda mahallalarda

1,1 mingga yaqin yuridik va 1,2 mingga yaqin yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlari davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

5. Hokim yordamchilari tomonidan 1-chorak davomida barcha mahallalarda qaytadan "xonadonbay" xatlov ishlari olib boriladi. Xatlov davomida aholining ishlash, kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qish, kredit va subsidiyalar olish kabi istaklari o'rganib chiqildi. Bu orqali oilalarning haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidagi o'zgarishlar "Onlayn mahalla" platformasida qayd etiladi.

6. Hokim yordamchilari tomonidan Termiz shahridagi "Ijtimoiy himoya yagona reestri"dagi (50,1 ming oila) har bir oilaning iqtisodiy ahvoli joyida o'rganib chiqilib, o'rganish natijalariga ko'ra daromadi kambag'allik chegarasidan past deb topilgan oilalar "kambag'allikdan chiqarish" moduliga kiritilib, har bir oila bilan "individual dastur" va "ijtimoiy shartnoma" asosida ish tashkil etiladi.

Termiz shahar hokimining birinchi o'rinbosari Sh.Qalandarov